



UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Turdiyeva R.K.

Guliston davlat universiteti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodkorlik, intellekt, muhit, omil, qiziqish, ta'lim, samara, rag'bat, o'yin, topshiriq, natija, yutuq.

Ключевые слова: начальное образование, креативность, интеллект, среда, фактор, инте-рес, образование, эффект, стимул, игра, задание, результат, достижение.

Key words: primary education, creativity, intelligence, environment, factor, interest, education, effect, incentive, game, assignment, result, achievement.

Hozirgi globallashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning intellektual qobiliyatlarini o'stirish, unda ijodkorlik, izlanuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, kreativ. tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish muhim ekanligi ta'kidlanmoqda. Chunki inson kapitalidan samarali foydalanish jamiyat rivojiini ta'minlashi barchaga ma'lim. 2021 yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi yoshlarini o'qish, matematik tabiiy-ilmiy va kompyuter savodxonligi kabi yo'nalishlar bo'yicha baholash imkonini beradigan. PI-SA (Programme for International Student Assessment; O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur)ning kreativlik mezoni bilan boyitilayotganligi dolzarb ahamiyat kasb eta-yotganligidan dalolat beradi. Zamonaviy maktabning muhim vazifasi o'quvchilar uchun eng yuqori darajadagi psixologik qulaylikni ta'minlaydigan va ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda intensiv rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydigan o'quv sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlini rivojlantirishning birinchi qadami unga ta'sir etuvchi bir qancha omillarni aniqlashdir. Bolalar uchun ijodiy muhitni ta'minlash juda muhimdir va u o'quvchilarda ijodkorlikni



shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu omillar bolalarning hissiyotlari, fikrlashiga, hayollariga, ruhiyatlariga, bilim. ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Birinchisi ta'lim maydoni, maktab dizayni, maktab jihozlari, sinf xonalar, bolalar uchun psix-ologik qulaylikni ta'minlaydigan, ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda in-tensiv rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlaydigan o'quv sharoitning mavjudligi hisoblanadi. Agar ta'lim muassasalari ko'proq va boyroq bo'lsa ijodkorlikni rivojlantirish uchun sharoitlar kattaroqdir, chunki ta'lim muhiti fikrga ta'sir qilishi mumkin Masalan tabiiy fanlarni maktab hovlisida, yoki mak-tab bog'ida tashkillantirish, yoki musiqa darslarini xonada oddiy gilam ustida o'tirib yoki turib, o'ynab o'tilishi bolaning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi. Maktabda bola o'zini erkin his qilishi kerak, chunki ular erkinlikni juda yaxshi ko'radilar. Bu bola uchun juda muhim. Chunki ijodkor bola oddiy narsalarni boshqa tomondan ko'ra oladi va erkinlikda u qobiliyatlarini yuzaga chiqara oladi. Bunga misol ular jismoniy tarbiya darslarini juda yaxshi ko'radilar. Chunki bu darsda ular xohlaganlaricha o'ynashlari, sakrashlari, baqirib-chaqirishlari mumkin. Bolani aqliy, jismoniy va ijodiy rivojlanishi uchun muhitning roli juda katta. O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Bola biz ko'ra olmaydigan jihatlarni o'zlariga xos uslubda ko'radilar va fikrlaydilar. Agar bolada qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrini to'liq bayon etishda had-iksirasa, tanqidga uchrasa, bunday vaziyatlarda o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari samarali rivojlanmaydi.

Bolalarning ijodkorligini rivojlantiruvchi omillardan biri bu ularni fikrlarini, ijodiy ishlarini (garchi u arzimasa-da) rag'batlantirishidir. Bola qalbi juda beg'ubor, pok bo'ladi. Ular bu rag'batdan, maqtovdan kuch oladilar va yanada rivojlanadilar. O'quvchilarning bildirilgan fikrlari, ijodiy ishlari tanqid qilinmaslik lozim. Fransuz ko'cha rassomi Tierri Guertta: "San'atni tanqid qilib bo'lmaydi, chunki har bir xato yangi ijoddir" degan edi. Tanqid, haqorat, e'tibor bermaslik ulardagi ishtiyoqni, qiziqishni, ijodkorlikni so'ndirishi mumkin. Maktab yoshidagi bolalar juda ta'sirchan bo'ladilar. Bu narsa ularning ruhiyatiga, ijodkorligiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada bola o'z qobig'iga oralalib olishlari va ular indamas, tortinchoq, kamgap bolalarga aylanib qolishlari mumkin.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari san'atni yaxshi ko'radilar. Ular jo'shqinlik bilan qo'shiq kuylashadi va raqsga tushishadi, haykaltaroshlik va rasm chizishadi, ertaklar o'qiydilar, sahna-lashtiradilar va xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanadilar. Ijodkorlik bolaning hayotini yanada boy, to'laroq,

quvnoq qiladi. Bolalar shaxsiy komplekslaridan qat'iy nazar, ijodkorlik bilan shug'ullanishlari mumkin. Har bir bola o'ziga xos qobiliyatga ega va ularning qiziqishlari ham tur-licha. Psixolog, pedagoglarni ta'kidlashicha, ijodiy sevimli mashg'ulotlar yoshidan qat'iy nazar inson-larga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun dunyoni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kundalik hayotga ijodkorlikni kiritish, bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish ularning kelajagi uchun ham muhimdir. Dars jarayonlarida o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshishiga, o'quvchilarni darsga yanada qiziqishlariga, ularning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktab muhim o'rin tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng ma'suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan harakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin or-qali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi oshishiga, o'qish motivlarini rivojlanishiha xizmat qiladi. Kreativ fikrlashga yo'naltirilgan fanga oid grammatik topshiriqlarni er-tak qahramonlari yoki multfilm qahramonlari orqali berilishi, bolalarning qiziqishiga, ijodiy izlanishlariga va ta'lim samaradorligining oshishiga sabab omil bo'lib xizmat qiladi.

Didaktik o'yinli texnologiyalar va ijodiy topshiriqlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga xizmat qiladi. Ular o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tanqid qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mus-taqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy), harakatli va aralash o'yin turlari amaliyotga tadbiq etilgan.(1) Grammatik topshiriqli o'yinlar o'ynash davomida topshiriqlarni yechadi, ijodiy izlanadi, to'siqlar, qiyinchiliklarni yengadi, tezlikda ishlashga o'rganadi natijada bola aqlan, jismonan, ruhan va ijodiy



ko'nikmalari shakllanadi. Rus pedagogi A. S. Makarenko ta'kidlaganidek, o'yinsiz to'liq axloqiy va aqliy rivojlanish bo'lmaydi, chunki u shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ochib beradi.

O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda, ularda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun, avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lishi zarur. Chunki o'qituvchilar va tarbiyachilar jamoasi ke-lajakda el-yurt, mamlakat ravnaqi yo'lida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni yetishtirib beruvchi muhim kadrlar sanaladi. Shu bois ham bunday mas'uliyatli ishga o'qituvchilar doimo shaxsiy mas'uliyat his etib, o'zlarining kasbiy malaka va mahoratlarini oshirib borishlari talab eriladi.

O'qituvchiga berilayotgan zamonaviy pedagogik talablar xususiyati haqida gap borar ekan, dunyoga mashhur shvesariyalik pedagog-psixolog Jan Piajening bugungi kunda yangidan ahamiyat kasb etgan ta'lim maqsadiga bergan ta'rifini eslatib o'tamiz: "Ta'lim maqsadi- oldingi avlodlar yaratgan narsalarni takrorlash bilan kifoyalanmasdan, yangicha mahsulotlarni yaratishga qodir, ijod-kor, kashfiyotchi insonlarni tarbiyalashdir"(2) .

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik va fiziologik jihatdan yosh bo'lganliklari sababli tarbiyachi pedagoglarning yordamiga muhtoj sanaladi. Demak, asosiy yuklama pedagoglar zimmasiga yuklanadi.

Milliy o'quv dastur, o'quv rejasi va kabi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma va kabilar)lar o'quvchilar ijodkorli-giga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi. Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Darslikda bayon etilayotgan o'quv axborotlari lo'nda, tushunarli va vizual bo'lishi, tanqidiy, kreativ fikrlashga qaratilgan, o'quvchilarning estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quv materialini darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, ma'lumotnomalar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va b.da ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish). "Kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba'zi o'quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Shunga



asoslangan holda o'qituvchilar har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati, moyilligi, shuningdek, ularning o'quv-bilish uslubidan kelib chiqqan holda" (Tomlinson, 1999) ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'quv manbalarini shakllantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ya olishlari kerak.(3)

O'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari o'quvchilarning kasbiy shakllanishida hamda ijodiy fikrlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati pedagoglar tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog'liq. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyor-lashga kreativ yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, kreativlik tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyil-larni inobatga olishi o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e'tibor qarati-ladi. Buning boisi, pedagog va o'quvchilarga ular orasidan o'zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olishga imkoniyat yaratishdir. Respublikamizda muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo'lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o'quv, metodik va o'quv-metodik qo'llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko'rsatishmoqda.

Raqamli texnologiyalar (kompyuter, radio, televidenie, Internet, telyefon, electron doska va boshqalar)dan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchi uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochadi. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish imkoniyatlarga ega. Ushbu texnologiyalardan foydalanish o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Bolalarda ijodiylikni rivojlantirishning yana bir omili bu oilaviy muhitidir. Bola hayotining ko'p vaqtini o'z oilasida o'tadi. Ibn Sino aytganidek, bola tarbiyasi ona qornidan boshlanadi. Uning nutqi, odobi, insoniy fazilatlarini oida tarkib topadi. Bolaga yoshligidan berilgan to'g'ri tarbiya, iliq, do'stona munosabatlar, bolaning qiziqish va istaklarining inobatga olinishi, rag'batlantirilishi, qo'llab-quvvatlanishi uning yetuk, barkamol, kreativ shaxs bo'lib yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki hech kim bolani onachalik yaxshi



bilmaydi. Bolaning eng birinchi ustozlari bu uning onasi hisoblanadi. Bolaning nutqining, tafakkurining insoniy fazilatlarining shakllanishida, dunyoni anglashida ota-onalarning oʻrni beqiyosdir. Ota-onalar, ayniqsa onalar bolalarini yoshligidan boqib, katta qiladilar, bolaning qiziqishlari, xohish, istaklarini, nuqson va kamchiliklarini juda yaxshi biladilar. Shuning uchun ham ota-onalar maktab bilan doimiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyishlari, bolaning maktabdagi oʻzlashtirishlari, qiziqishlari, ehtiyozlarning qay darajada bajarilayotganligini, maktabdan soʻng toʻgarak yoki qoʻshimcha mashgʻulotlarga borishlarini nazoratga olish kerak. Ota-onalar bolaning qaysi fanda qiziqishlari, qanday oʻzlashtirishlari yoki bola oʻqigan kitoblarini bola bilan muhokama qilishlari va uning shaxsiy fikrlari bilan qiziqishlari zarur. Chunki maktab oʻqituvchisi sinfdagi barcha oʻquvchilarning barcha talab va istaklarini bajara olmaydi. Shuning uchun ota-onalar va maktab oʻrtasida doimiy hamkorlikning yoʻlga qoʻyilishi bolaning kun tartibini toʻgʻri rejalashtirishlariga asos boʻladi.

Xulosa qilib aytganda bolalar hayotiga ijodkorlikni kiritish bolalar uchun, ota-onalar uchun va jamiyat uchun ham juda samaralidir. Ijodkorlik stress va qoʻrquvni yoʻqotadi, salbiy his-tuygʻulardan chalgʻitadi, tajovuz darajasini pasaytiradi. (2) Ijodkorlik bolani qiziqqan narsasini oʻrganishga yordam beradi. U miyani boʻshatadi va qiyin muammoning yechimini topishga yordam beradi hamda hamdardlikni rivojlantiradi, kayfiyatni koʻtaradi. Insonga kuch beradi. Ijodkorlik - bu oʻzini namoyon qilish usuli hisoblanadi. Bolalardagi qobiliyatlar tugʻma emas, ularning rivojlanishi uchun maxsus shart-sharoitlarni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. R.K.Turdiyeva “Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodiy koʻnikmalarini rivojlantirish” Oʻquv qoʻllanma. T., 2022
2. M.X.Mansurova. Taʼlim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologilar va oʻqituvchi kreativligining ahamiyati www.openscience.uz «Science and Education» Scientific Journal 422-424 b
3. O.Fozilova Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. yangi oʻzbekiston pedagoglari axborotnomasi. 1-jild, 4-son, part 2 (yoʻpa) 26-29 b
4. L.Z.Qoraboyeva. Kreativ yondashuv asosida oʻquv dasturlari va oʻquv manbalarini yaratish “Bilig – ilmiy faoliyat” | <http://bilig.academiascience.org> 99-103 b
5. M.Yulchiyeva Oʻquvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 1378-1381 b

РЕЗИОМЕ

Ушбу мақолада умумтаълим мактабларининг бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий фикрлашга ўргатиш усуллари ва унга таъсир этувчи омиллар тўғрисида сўз боради.

РЕЗИОМЕ

В данной статье говорится о методах обучения младших школьников творческому мышлению и факторах, влияющих на него.

SUMMARY

This article talks about methods of teaching creative thinking to junior schoolchildren and the factors influencing it.